



**TIQXMMI**  
**MTU**  
"TOSHKENT IRRIGATSİYA VA OİSHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANİZATİSYALASH  
MUHANDİSLARI INSTITUTTI"  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



**FAN:**

ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRNI  
BAHOLASH (AMBTB)

MAVZU  
**08**

*AMBTB jarayonida  
maslahatlar va jamoatchilik  
ishtiroki*



Razzakov Ruslan  
Ishqulovich


"Ekologiya va suv resurslarini  
boshqarish" kafedrası katta o'qituvchisi



## Reja:

1. Jamoatchilik ishtiroki tushunchasi
2. Jamotchilik ishtirokining AMBTB jarayonida ahamiyati va o`rni
3. Jamoatchilik maslahatlashuvlari AMBTB jarayoning turli bosqichlarida qo`llanilishi
4. Jamoatchilik ishtiroki turlari
5. Jamoatchilik ishtiroki tashkil etishning asosiy tamoyillari

## 1-rasm. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayoninig umumiy sxemasi



# Tushunchasi

**Jamoatchilik ishtiroki**  
- manfaatdor  
tomonlar o'rtasidagi  
o'zaro aloqaning  
tarkibiy qismi sifatida,  
**AMBTB jarayonning**  
**muhim elementi**



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 12 mart 1072-sonli qaroriga asoslangan investitsiyadasturini amalga oshirish doirasida Jahn banki "TALIMARJON IES" UK qoshidagi yangi investitsiyalar qurilishi hamda Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining hududidan o'tuvchi 500 kV yuqori voltli elektr liniyasining qurilishini moliyalashtirishni taklif qiladi.

Ushbu loyiha bo'yicha 2 raundli jamoat muhokamalari rejulashtirilgan. Joriy yil 28 iyul kuni soat 10.00 da viloyat hokimligining binosida loyihaning atrof-muhitiga ta'siriningdastlabki natijalari va ijtimoiy masalalari bo'yicha II raund jamoat muhokamalari bo'lib o'tadi.

Jamoat muhokamalariga yerlarni qurilish ostida qoladigan fermer xo'jaliklarning rahbarlari va barcha manfaatdor shaxslar taklif etiladilar

# Tushunchasi

- 
- **Jamoatchilik ishtiroki** – manfaatdor tomonlar – jamoatchilik va qaror qabul qilish uchun ma’sul bo’lgan tashkilot o’rtasidagi uzlucksiz o’zaro hamkorlik jarayoni deb qaralishi mumkin.
  - **Bunda:** Jamoatchilikda ekologik muammolarni aniqlash va tegishli tashkilotlar tomonidan ekologik ehtiyojlarni e’tiborga olinishining mexanizmlari va jarayonlari bo'yicha aniq va to'liq tasavvur shakllanishi uchun sharoitlar yaratiladi

# Ahamiyati

## ➤ Jamoatchilik ishtirokining muhim jihatlari

- *uzluksiz jarayon;*
- bu jarayon ishtirokchilarga ma'lum bo'lgan muayyan qoidalar bo'yicha kechadi

## ➤ Barcha manfaatdor tomonlar jumladan fuqarolar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladilar:

- o'z nuqtai nazarini ifodalash,
- o'z ehtiyojlarini bildirish,
- resurslardan foydalanishda ustivorliklarini asoslash,
- loyihani boshqarish tizimi va muqobil varianlar bo'yicha fikrini bildirish,
- boshqa mazkur loyiha bilan bog'liq ma'lumotlarni berish

# Jamoatchilik ishtirokining vazifalari

- ❖ ma'lumot berish;
- ❖ jamoatchilik ishtiroki afzalliklarini aniqlash;
- ❖ g'oyalarni ishlab chiqish, muammo bo'yicha maqbul qarorlarni izlash;
- ❖ loyiha qarorlari bo'yicha sharhlar va takliflarni olish;
- ❖ muqobil yechimlarni baholash;
- ❖ nizoli vaziyatlarga yechim topish va u yoki bu masalalar bo'yicha kelishuvga erishish.

# Ko`rinishlari

**AMBTB da jamoatchilikning ishtiroki  
quyidagi ko`rinishlarda bo'lishi  
mumkin:**

- ✓ Jamoatchilik ishtiroki mutlaqo  
sezilmaydigan vaziyat
- ✓ Fuqarolarning fikrlari inobatga olingan  
vaziyat

# Samarali tashkil etilgan jamoatchilik ishtiroki quyidagi o'zaro bog'liq bosqichlarni o'z ichiga oladi

- Manfaatdor guruhlar va shaxslarni aniqlash.
- Ishonchli ma'lumotlarni auditoriyaga tushunarli tilda va ko'rinishda o'z vaqtida yetkazish.
- Qaror qabul qiluvchi tomon va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida dialogni o'rnatish.

# **Samarali tashkil etilgan jamoatchilik ishtiroki quyidagi o'zaro bog'liq bosqichlarni o'z ichiga oladi**

- ➔ Dialoglar natijalarini qaror qabul qilishda asos sifatida foydalanish.
- ➔ “Teskari aloqa” — qabul qilingan qarorlar va ularga jammoatchilik ishtirokining qay darajada ta'sir etgani to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish.

**«Jamoatchilik»** - “bir yoki bir necha jismoniy va yuridik shaxslar”

**“Manfaatdor jamoatchilik”** – atrof muhit holatiga tegishli masalalar bo'yicha qaror qabul qilish jarayoniga daxldor, yoki qabul qilinadigan muayyan qarorlarning ta'siriga tushuvchi, yoki undan manfaatdor bo'lgan jamoatchilik.

Aholining turli guruhlari mo'ljallangan faoliyatning ta'siriga bir xil darajada va tarzda tushmaydi.

Jamoatchilik ishtirokining samarali dasturlari jamoatchilikning **manfaatdor (maqsadli) guruhlarini** aniqlashga va keyinchalik ular bilan ish olib borishga asoslanadi



# Manfaatdor (maqsadli) guruhlar tahlilidan maqsad

- Mo'ljallangan faoliyat turi bilan bog'liq turli manfaatlar va fikrlarni hisobga olish.
- Jamoatchilik bilan hamkorlikni tashkil etishda turli guruhlarning o'ziga xosligini e'tiborga olish

# AMBTB bosqichlarida jamoatchilikning ishtiroki

1. **Boshlang'ich bosqich – AMBTB zarurligi haqida qaror qabul qilish (skrining) bosqichida - jamoatchilikning ishtiroki faoliyat tashabbuskoriga qimmatli, zarur axborotlarni to'plashga imkoniyat yaratadi. Bunda:**

- Mazkur loyiha bo'yicha jamoatchilikning xavotirligi darajasini aniqlash;
- Qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish xohishini aniqlash maqsadga muvofiq.

**Bu AMTBni o'tkazishda muhim omillardan biri.**

# **AMBTB bosqichlarida jamoatchilikning ishtiroki**

- 2. AMBTB vazifalarini aniqlash bosqichi** - jamoatchilikni ko'proq qaysi muammolar xavotirga solayotganligi, shuningdek, keyingi bosqichlarda ustuvor o'rinnegallashi mumkin bo'lgan muammolar aniqlanadi.
- Bu sezilarli tadbirlarni aniqlashga hamda uning asosida AMBTBning keyingi bosqichlarida chuqurroq tahlil qilish uchun ustivor muammolarni aniqlash imkonini beradi.
  - Manfaatdor guruhlar bilan hamkorlik qilish AMBTB uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni olish imkonini beradi

# **AMBTB bosqichlarida jamoatchilikning ishtiroki**

## **3. Ta'sirlar ahamiyatini bashoratlash va baholash bosqichi:**

- Eng ko'p darajada ilmiy-texnik xarakterga ega hisoblanadi.
- Biroq, mazkur bosqich mazmuni nafaqat ta'sirlar miqdorini bashorat qilish, balki ularning ahamiyatliligini, ya'ni kutiladigan oqibatlarning jamoatchilik tasavvuridagi yo'l qo'yilishi mumkinligi darjasи bilan qiyoslashni ham qamrab oladi.

# AMBTB bosqichlarida jamoatchilikning ishtiroki

## 4. AMBTBni muhokama qilish bosqichi

- AMBTB bo'yicha fikrlarni o'rganish.
- Loyiha bo'yicha takliflarni qayta tahlil etish.

*AMBTBda jamoatchilik ishtirokining eng muhim va yaxshi rivojlangan bosqichlaridan biri hisoblanadi.*

- Mazkur bosqichda jamoatchilik AMBTB bo'yicha o'z fikrlari va e'tirozlarini bildirishi mumkin, jamoatchilik eshituvi va boshqa tadbirlar o'tkazilishi mumkin.
- Muhokamalarning eng muhim mavzularidan biri bu avval ishlab chiqilgan muqobil variantlar bilan solishtirish bo'lishi mumkin.

# **AMBTB bosqichlarida jamoatchilikning ishtiroki**

- 5. AMBTB sifatini tizimli baholash bosqichi** – jamoatchilik yoki uning vakillari har doim ham AMBTB sifatini tizimli baholashda ishtirok etmaydi, biroq bu bosqichda avvalgi boshqichlardagi jamoatchilik ishtiroki natijalari e'tiborga olinishi lozim.
- 6. Mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish bosqichi** - bu bosqichda jamoatchilik ishtiroki – loyiha yechimlarini bajarilishini va real ta'sirlarning AMBTB loyihasida bashorat qilingan ko'rsatkichlariga mosligini jamoatchilik tomonida nazorat qilinishi ko'rinishida o'tkazilishi mumkin.

# Jamoatchilik ishtiroki darajalari

- Ishtirok darajasi pastdan yuqoriga o'sib boradi.
- «Narvon»ning pastki ikki pog'onasi odatda jamoatchilik ishtiroki umuman mavjud bo'l. Magan vaziyatlardan iborat.
- «Manipulyatsiya» holatida jamoatchilikning real ishtiroki emas balki shunday ishtirokning imitatsiyasi haqida so'z boradi.
  - "Terapiya" qabul qiluvchi tomon fuqarolarni «o'qitadi», ularni taklif etilayotgan loyihaning yoki yechimni zararsizligi yoki foydaliligiga, ularni hech qanday ma'lumot bermay yoki ularning ishtirokini taklif etmay ishontirishga harakat qiladi.

*Xabardor qilish va maslahatlashish darajasiga mos to'liq xajmdagi yondashuvlar ta'minlansa, fuqarolar «**bilish**» uchun (mo'ljallanayotgan faoliyat to'g'risida ma'lumot olish) va «**fikr bildirish**» (o'z nuqtai nazarini ifodalash) real imkoniyatiga ega bo'ladilar.*

*Biroq, mazkur bosqichlarda («Narvon»ning pastki ikki pog'onasi) fuqarolarning ta'sir etish darajalari yetarli emas va ularning fikrlari «eshitilishiga» va e'tiborga olinishiga ular ishonmaydilar*

*Jamoatchilik ishtirokining keyingi bosqichida fuqarolar-jamoatchilik fikr bildirish huquqiga ega va ularning fikrlari qaror qabul qilishda e'tiborga olinadi. Biroq bu bosqichda jamoatchilikning qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda real ishtirokini ta'minlovchi mexanizm mavjud emas.*

- *Jamoatchilik ishtiroki fuqarolarga jarayonning boshqa ishtirokchilari bilan muzokaralar olib borish, kompromislarga erishish imkonini beruvchi «**Partnyorlik**» ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.*
- *Vakolatlarni topshirish imkoniyati bo'lgan va fuqarolik boshqaruvi holatlarida, rasmiy lavozimlarga ega bo'lмаган fuqarolar ham qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan vakolatlarga qisman yoki to'liq ega bo'lishlari mumkin.*
- *Amalda «**fuqarolik boshqaruvi**» deb nomlanuvchi holatlardan ham foydalaniladi, masalan referendumlar vaqtida*

# Jamoatchilik ishtiroki turlari

- Jamoatchilikni axborot bilan ta'minlash;
- Jamoatchilikdan axborot olish vositasi;
- Qaror qabul qilishdagi ishtiroki;
- Davra suhbati;
- Jamoatchilik fikrini o'rganish;
- Norasmiy uchrashuvlar;
- Yig'inlar;
- Maxsus maslahat yoki boshqaruv kengashlar.



**TIQXMMI**  
"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI"  
**MTU**  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

**E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!**

